

Jamiyat va boshqaruv

Общество и управление / Society and Administration

2026/1(111)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI



Toshkent – 2026



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI

JAMIYAT VA BOSHQARUV

Общество и управление / Society and Administration

2026/1(111)

BYUDJET JARAYONLARIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISH – TARAQQIYOT VA FAROVONLIK GAROVI

Sayyora MAXMUDOVA,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
o'qituvchisi.



Annotatsiya: mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari davlat siyosa-tida muhim o'rin egallab, bu borada ko'plab huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirildi. Maqolada byudjet jarayonlarida korruptsiyaning oldini olish taraqqiyot va farovonlik garovi ekanligi tahlillar asosida keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: *byudjet, Byudjet kodeksi, byudjet jarayoni, byudjet qonunchiligi, korruptsiya, manfaatlar to'qnashuvi, korruptsiyaviy omillar.*

**Предотвращение коррупции в бюджетных
процессах – гарант развития и
благополучия**

Сайёра Махмудова,
преподаватель Ташкентского
международного университета Кимё.

Аннотация: в нашей стране борьба с коррупцией заняла важное место в государственной политике, и в этом отношении были проведены многочисленные правовые и институциональные

реформы. В статье анализируются предотвращение коррупции в бюджетных процессах как гарант развития и процветания.

Ключевые слова: бюджет, Бюджетный кодекс, бюджетный процесс, бюджетное законодательство, коррупция, конфликт интересов, факторы коррупции.

**Preventing corruption in budgetary processes
is a guarantee of development and prosperity**

Sayyora Makhmudova,
Lecturer, Kimyo International University in
Tashkent.

Abstract: In our country, the issues of fighting corruption have taken an important place in the state policy, and many legal and institutional reforms have been implemented in this regard. The article analyzes the prevention of corruption in budgetary processes as a guarantee of development and prosperity.

Key words: *budget, budget code, budget process, budget legislation, corruption, conflict of interest, factors of corruption.*

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2026-yilning 27-yanvar kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi-dagi nutqida: "Poytaxtimiz – Toshkent shahrida yashirin va kuzatilmaydigan iqtisodiyot 60 trillion so'mga yetgani, bu byudjet yiliga 7,5 trillion so'mni yo'qotyapti degani. Birgina aksiz solig'i to'lovchilar ishlab chiqarish va realizatsiya hajmini yashirgani oqibatida 66 milliard so'm soliqdan qochilgan"ligi haqidagi ma'lumot keltirildi. Darhaqiqat, bu yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish va soliq ma'murchiligi bo'yicha poytaxt soliq organlarining ishi mutlaqo qoniqarsiz ekanligidan dalolat beradi. So'nggi ikki yilda shahar soliq idoralarining 19 nafar xodimi korrupsiya bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortilgan, byudjetga 27 milliard so'm zarar yetkazilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev mazkur videoselektor yig'ilishidagi nutqida: **"Bilib qo'yinglar, davlatning har bir so'mi bo'yicha ta'sirchan nazorat o'rnatiladi. Javobgarlik muqarrar, jazo qattiq bo'ladi!"**, – deb qattiq ogohlan-tirgan edi.

Korrupsiya o'zining universalligi bilan ajralib turadi – u ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar, barcha davlatlarda mavjud bo'lib, yangi transmilliy shakllarga ega bo'lmoqda.

Korrupsiya davlat va jamiyat hayotining barcha sohalariga salbiy ta'sir ko'rsatib, milliy boyliklarni taqsimlash va qayta taqsimlashning asosiy mexanizmiga aylanadi. Mamlakatning milliy daromad va byudjet tizimining davlat mablag'larini g'ayriqonuniy o'zlashtiradi. Korrupsiyaning zarari mamlakatimiz iqtisodiyotining investorlar uchun jozibadorligining pasayishi, hukumat obro'sining pasayishi, xususiy tadbirkorlarning vayron bo'lishi va

uyushgan jinoyatchilikning kuchayishi bilan namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda 2030-yilga borib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM hajmini 5800 AQSh dollaridan oshirish va O'zbekistonni daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kiritish, ya'ni aholi turmush farovonligini keskin oshirish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida keltirilgan quyidagi raqamlar zamirida ortga qaytmas islohotlar, mehnatkash xalqimizning peshona teri, mashaqqatli mehnati yotibdi: "Qanchalik og'ir bo'lmasin, boshlagan demokratik islohotlarimizni qat'iy davom ettirganimiz; xalqimizning qo'llab-quvvatlashi va yoshlarimizning g'ayrat-shijoati; hamjihatlik asosi bo'lgan mahallaning hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirganimiz; odamlarimizning ongi va dunyoqarashini o'zgartirib, el-yurtimizni yanada jipslashtirganimiz; tadbirkor, dehqon va fermerlarimizning tashabbuskorligi va mardona mehnati; o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan do'stona tashqi siyosatimiz hisobiga 2025-yilda barcha sohalarda ulkan yutuqlarga erishdik". [1]

Avvalo, jahon miqyosida ishlab chiqarish va transport-logistika zanjirlari uzilgan, xomashyo va moliyaviy resurslar narxi oshgan sharoitda ham mamlakatimiz iqtisodiyoti ishonchli va barqaror o'sishda davom etayotganini qayd etish lozim. Ushbu natijalar dunyo hamjamiyati va nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Bundan to'qqiz yil oldin iqtisodiyotimiz hajmini 100 milliard dollarga yetkazish biz uchun juda katta marra bo'lib ko'ringan. Bu yil esa tariximizda birinchi marta yalpi ichki

mahsulot 145 milliard dollardan oshdi. Bunday yuksak natijalar xalqimizning, barchamizning qanday ulkan ishlarga qodir ekanimizni yaqqol namoyon etmoqda. Global savdo tizimida “o‘yin qoidalari” o‘zgarayotgan bir paytda mamlakatimiz eksporti bu yil 23 foizga oshirilib, 33,4 milliard dollarga yetkaziladi. Eng muhimi, islohotlarimiz uchun mustahkam moliyaviy baza bo‘ladigan oltin-valyuta zaxiralarimiz ilk bor 60 milliard dollardan oshdi.

Bu yil iqtisodiyotimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 43,1 milliard dollarga yetdi. Jami investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 31,9 foizni tashkil etmoqda. Bu esa, iqtisodiyotimiz kelgusi yillarda ham yuqori sur‘atlar bilan barqaror o‘tib borishi uchun zamin bo‘ladi. Ushbu natijalar Yangi O‘zbekistonni barpo etishning iqtisodiy va moddiy sharoitlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ilmiy doiralarda ham, 2025-yil O‘zbekiston iqtisodiy hayotida muhim voqealarga boy bo‘lganligi, YalMning o‘sishi 7,7 foizni tashkil etishi, kambag‘allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushgani, inflyatsiya 7,3 foizgacha pasaygani [2] qayd etilmoqda. Agar, 2024-yilda **640** ta holatda **byudjet mablag‘idan foydalanish** bilan bog‘liq korrupsiyaga oid jinoyatlar bo‘lmaganda edi [2], ko‘rsatkichlar bundan ham yaxshi bo‘lishi mumkin edi.

Bugungi natijalarga erishishda: “Eng muhimi, mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida **noreal raqamlar ortidan quvish, amalga oshmaydigan xomxayollarni haqiqat sifatida taqdim etishdek noma’qul ish uslubi** tanqidiy qayta ko‘rib chiqildi. **Amaliy natijadorlik, inson manfaati va yana bir bor inson manfaati**

islohotlarning bosh maqsadi etib belgilangan” [3] edi.

Yurtimizda 2016-yildan boshlangan yangi iqtisodiy siyosat tufayli yuz minglab aholi tadbirkorga aylandi va ularning soni tobora kengaymoqda. Birgina 2023-yilning birinchi yarim yilligida yuz mingga yaqin tadbirkorlik subyekti ro‘yxatdan o‘tdi. 1917–2016-yillar mobaynida xalqimizning qariyb yo‘qolib ketayotgan tadbirkorlik tafakkuri va salohiyati qaytadan yana tiklana boshladi, ular el ichida yana qadr-qimmat topa boshladi. Shuningdek byudjet shakllanishining asosiy iqtisodiy dastagi – soliq to‘lovchilar soni ortdi. 2016-yilga qadar byudjetning ijtimoiy himoya vositasi funksiyasini bajarishda korrupsiya keng avj olganligi sir emas.

Avvallari ijtimoiy himoya sohasida juda katta kamchiliklar mavjud bo‘lib, moddiy yordam haqiqiy kambag‘al chetda qolib, tanish-bilishlik orqali o‘ziga to‘q oilalarga berilishi holatlari ham uchrar edi. Prezident Shavkat Mirziyoyev aholining ehtiyojmand qatlamlarini himoya qilishni davlatning eng muhim ijtimoiy funksiyalaridan biriga aylantirdi. Natijada, Harakatlar strategiyasi doirasida pensionerlar, nogironlar, yolg‘iz keksalar va aholining boshqa ehtiyojmand toifalariga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatishning butunlay yangi tizimi yaratildi.

Tegishli idoralar vakillari mahallama-mahalla, xonadonma-xonadon yurib, vaziyatni joyida o‘r-ganib, kam ta‘minlangan, ishsiz, kambag‘al oilalar, ayollar, yoshlar ro‘yxatini tuzildi va ular uchun mos ravishda alohida “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” yaratildi. Mazkur daftarlarga kiritilgan fuqarolarning, avvalo, tadbirkorlik salohiyatini aniqlash, keyin ularga mos shart-sharoitlar yaratish, qo‘llab-quvvatlash tizimi ishlab chiqildi,

ularga “start, ya’ni dastlabki kapital” berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasidagi: **“Korrupsiyaga yo‘l qo‘yish esa – islohotlarimizga xiyonatdir. Bu illatga qarshi kurashish bo‘yicha 2026-yilda “favqulodda holat” e‘lon qilamiz...Lavozimim, unvonim bor, menga hech kim tegmaydi”, deganlar adashadi. Qonun oldida hamma teng!**[1], degan so‘zlari barcha davlat xizmatchilari uchun ogohlik qo‘ng‘irog‘i edi. Darhaqiqat, korrupsiya taraqqiyotni susaytiruvchi, iqtisodiyotga, odamlarning hayot sifatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri salbiy ta’sir etuvchi omil sifatida zamonaviy jamiyatning og‘riqli nuqtasi hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat huquqiy-ijtimoiy vazifa, balki davlatning barqaror rivojlanishi va inson huquqlarini himoya qilishning asosiy shartidir. Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari davlat siyosatida muhim o‘rin egallab, bu borada ko‘plab huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirildi. Korrupsiyaning barqaror rivojlanishga, davlat boshqaruvi samaradorligiga va inson huquqlariga salbiy ta’siri xalqaro miqyosda keng tan olingan bo‘lib, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi samarali kurashish davlat organlari, fuqarolik jamiyati va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni talab qiladi. Shu jumladan, O‘zbekistonda ham davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlikni ta’minlash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ma’lumki, moliya tizimida byudjet tizimi alohida o‘rin egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimining asosiy

vazifalari 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi[4] 158-II-son Qonunida aniq belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag‘lari oluvchi-lar yig‘indisini; byudjetlarni tashkil etish va tuzishni, tuzish prinsiplarini; byudjet jarayonida ular o‘rtasida, shuningdek, byudjetlar hamda byudjet mablag‘lari oluvchilar o‘rtasida vujudga keladigan o‘zaro munosabatlarni o‘zida ifodalaydi.

Byudjet kodeksi[5]ga ko‘ra, **O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti (Davlat byudjeti)** – davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta’minlash uchun mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul jamg‘armasidir.

Davlat byudjeti davlat tomonidan iqtisodiy sohani tartibga solishga qaratilgan eng muhim mexa-nizmlardan biridir. Zero, har qanday jamiyatning iqtisodiy tizimini shakllantirish va rivojlantirishda davlat byudjeti asosiy o‘rin tutadi. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari siyosati o‘zaro uzviy bog‘liq. Ya’ni daromad bo‘lmasa, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy, texnik va boshqa sohalarni qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirish uchun moliyaviy mablag‘ ajratish imkoni bo‘lmaydi. Shu bois, bugungi kunda davlatimiz oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardan biri – xalqimiz va davlat manfaatlariga mos keladigan hamda ishlab chiqarishni rivojlantirishga qodir moliya-kredit, pul siyosatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdir.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini isloh etish va erkinlashtirish, ilgari davlat zimmasida bo‘lgan bir qan-cha vazifalarning xususiy sektorga o‘tkazilishi Davlat byudjeti xarajatlarini optimallashtirish, yangi sanoat yo‘nalishlarining

rivojlantirilishi hamda xususiy sektor moliyaviy holatining mustahkamlanishi, shuningdek, uning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushining ortishi byudjet daromadlarini bir necha barobar oshirish imkonini berdi. Taqqoslaydigan bo'lsak, O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingan 1991-yilda Davlat byudjetining kamomadi uning umumiy xarajatlariga nisbatan 44 foizdan ziyodni tashkil qilar edi[6]. Davlat byudjetining 2026-yil uchun parametrlari, byudjet taqchilligi miqdorlari jahon iqtisodiyotidagi noaniqliklar va geosiyosiy vaziyatning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'sirini yumshatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish kabi omillarni e'tiborga olgan holda hisob-kitob qilingan. 2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjeti taqchilligining cheklangan miqdori yalpi ichki mahsulotning 3 foizi miqdorida belgilandi [7]. 2026-yil uchun O'zbekiston davlat byudjeti 6,6 foizlik iqtisodiy o'sish va konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligining yuqori chegarasini (yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik) saqlab qolgan holda tasdiqlandi. Asosiy e'tibor ijtimoiy sohani moliyalashtirish, inflyatsiyani jilovlash va byudjet intizomini

kuchaytirishga qaratilgan. Byudjet xarajatlarning katta qismi ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoyaga yo'naltiriladigan bo'ldi.

2026-yilda yalpi ichki mahsulotning o'sishi – 6,6 foiz, inflyatsiya darajasi 6,5 foiz atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda. Taqchillik chegarasi – 51,6 trln so'm yoki YaIMga nisbatan 3 foiz. Davlat tashqi qarzining cheklangan miqdori – 5 mlrd dollar. Shundan 2,5 mlrd dollar davlat byudjetini qo'llab-quvvatlashga, 2,5 mlrd dollar investitsiya loyihalariga yo'naltiriladigan[7] bo'ldi.

“Transparency International” xalqaro nodavlat-notijorat tashkiloti 2025-yil yakunlari bo'yicha o'zining an'anaviy Korrupsiyani qabul qilish indeksini e'lon qildi. Bu safar reytingda 182 ta davlatning ko'rsatkichlari keltirilgan. O'zbekiston unda 31 ball bilan 124-o'rinni egalladi. Taqqoslash uchun, O'zbekiston bu indeksning 2016-yilgi hisobotida 21 ball bilan 156-o'rinda joylashgandi. Keyingi yillardagi o'rinlar: 2017-yilda 157-o'rin (22 ball); 2018-yilda 158-o'rin (23 ball); 2019-yilda 153-o'rin (25 ball); 2020-yilda 146-o'rin (26 ball); 2021-yilda 140-o'rin (28 ball); 2022-yilda 126-o'rin (31 ball); 2023-yilda 121-o'rin (33 ball); 2024-yilda 121-o'rin (32 ball) [8].

EASTERN EUROPE AND CENTRAL ASIA

UZBEKISTAN

Score

31/100

[What does the CPI score mean?](#)

Rank

124/182

Score change

↓ -1 since 2024

Share how your country is doing



2025-yil yakunlari bo'yicha korrupsiya darajasi eng past Top -10 ta mamlakat quyidagilar: Daniya – 89 ball; Finlandiya – 88 ball; Singapur – 84 ball; Yangi Zelandiya – 81 ball; Norvegiya – 81 ball; Shvetsiya – 80 ball; Shveytsariya – 80 ball; Lyuksemburg – 78 ball; Niderlandiya – 78 ball; Germaniya – 77 ball[8]. Rossiya 22 ball olgan holda Chad, Gonduras va Zimbabve kabi davlatlar bilan 157-o'rinni bo'lishib turibdi. Markaziy Osiyo davlatlaridan Qozog'iston – 96, Qirg'iziston – 142, Tojikiston – 166, Turkmaniston esa, 167-o'rinda joylashgan. Reytingni Nikaragua, Sudan, Eritreya, Liviya, Yaman, Venesuela, Somali va Janubiy Sudan kabi davlatlar yakunlaydi[8].

Byudjet jarayoni korrupsiyaga moyil, chunki davlat moliyasi aynan shu orqali boshqariladi. Byud-jet jarayoni raqobatdosh milliy manfaatlar o'rtasida mavjud resurslarni taqsimlash vositalarini ta'minlaydi. Davlat xarajatlari va ayniqsa, davlat investitsiyalari korrupsiyaning mumkin bo'lgan yo'llaridan biridir. Shunday qilib, davlat sektoridagi korrupsiya byudjet jarayonidan boshlanadi. Korrupsioner mansabdor shaxslar resurslarni taqsimlashni o'zgartirish orqali resurslarga noqonuniy yo'naltirish berdi, bu esa qonunchilik talablarini buzadi va pirovardida, haqiqiy byudjet va tasdiqlangan byudjet o'rtasidagi tafovutga olib keladi. Bizningcha, bu korrupsiyaning eng og'ir oqibati bo'lib, korrupsiyaga botgan mansabdor shaxslarning shaxsiy boyib ketishidan ko'ra ham ayanchlidir.

Shu bois, byudjet jarayonidagi korrupsiyaning salbiy oqibatlari haqida yondashuvlardan biriga e'tibor qaratamiz[9]:

1. Resurs taqchilligining paydo bo'lishi. Davlat g'aznasidan turli resurslarni xususiy qo'llarga yo'naltirish davlat faoliyatini rivojlantirish va

amalga oshirish uchun muhim xarajatlarning qisqarishiga olib keladi.

2. Davlat rejalashtirishining samarasizligi. Byudjet jarayonini amalga oshirish bosqichidagi korrupsiya xarajatlarining dastlabki rejalashtirilgan xarajatlardan kamaytirilishini nazarda tutadi.

3. Hukumat va davlat sektori faoliyatiga putur yetadi. Qonun ustuvorligiga jamoatchilik ishonchining pasayishi.

Shunday qilib, byudjet jarayonidagi korrupsiyasi davlat va jamiyatning xavfsiz va barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi hayotiy muhim tarmoqlardagi xarajatlarga bevosita ta'sir ko'rsatish orqali byudjet tizimidagi korrupsiya mamlakatning kelajakdagi istiqbollari jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik shartlaridan biri byudjet daromadlari va xarajatlari xalqimiz uchun ochiq va oshkora bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Bejizga, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yilda davlat byudjeti mablag'laridan oqilona foydalanish masalasiga alohida e'tibor berilgan holda **“Davlat byudjeti o'lchovsiz emas, mablag'larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta'minlash zarur”**[10]ligiga oid e'tirofning naqadar o'rinli ekanligini bugun qayd etish mumkin. Shuning uchun ham 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturida **“Byudjet daromadlari va**

xarajatlarning xalq uchun ochiq va oshkora bo'lishini ta'minlash"[11] bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berilgan edi.

Shu munosabat bilan korrupsiyani kamaytirishga yordam beradigan choralar ko'rilmogda. Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar, birinchi navbatda, tegishli qonunchilik bazasi yaratildi.

Byudjet tizimi to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishida aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Birgina Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan 2024-yilda byudjet mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanish ustidan samarali nazoratni ta'minlash, byudjet qonunchiligi buzilishi profilaktikasini kuchaytirish borasida tizimli ishlar olib borildi.

Byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlash, noqonuniy xarajatlarning oldini olish borasida[2, 24-25-b.]:

- davlat organlari xarajatlari smetasi va shtatlar jadvallarining haqqoniylikini ta'minlash borasida o'tkazilgan o'rganishlarda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birga, **2,3 trln** so'm mablag' maqbullashtirildi;
- byudjet mablag'lari harakati ustidan o'rnatilgan masofaviy monitoring natijasida, **554 ta** holatda davlat xaridlari bilan bog'liq 3,1 trln so'mlik noqonuniy xarajatlarning oldi olindi;
- o'tkazilgan tezkor-tahliliy tadbirlar natijasida, **857 ta** holatda **1,2 trln** so'mlik byudjet mablag'lari talon-torajiga barham berilib, **660 mlrd** so'mi byudjetga undirildi;
- **87 ta** holatda **247 mlrd** so'mlik subsidiya mablag'laridan maqsadsiz foydalanishga chek qo'yildi

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish borasida **673 mingta** subyekt xatlovdan o'tkazilib, yashirin aylanmalarni rasmiy hisobotlarda aks ettirish orqali **16 trln** so'm mablag'ning byudjetga undirilishi ta'minlandi.

Departament tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha jami **2 266 ta** jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Jumladan, ta'limda – **664 ta**, hokimliklarda – **394 ta**, tibbiyotda – **362 ta**, banklarda – **333 ta**, energetikada – **195 ta**, davlat korxonalarida – **103 ta**, kadastr va arxitektura – **80 ta**, soliq organlarida – **66 ta**, mahallalarda – **35 ta**, moliya tizimida **34 ta** korrupsiyaviy huquqbuzarlik fosh etildi.

Shuningdek, **178 nafar** tadbirkor korrupsiyaviy tajovuzdan himoya qilindi.

Xulosa o'rnida aytganda, byudjet jarayonida korrupsiyaning oldini olish "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan vazifalarning bajarilishida O'zbekiston taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqadi, jamiyatimiz hayotini tubdan o'zgartiradi, xalqimiz farovonligini keskin oshiradi, Uchinchi Renessansning tashkiliy-huquqiy, ilmiy, ma'naviy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yaratadi, xalqimiz qadr-qimmatini yanada ko'taradi.

1. 2026-yilda byudjet sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha preventiv mexanizmlarni yanada keng joriy etish, korrupsiyaning oqibatlari bilan emas, uning oldini olishga qaratilgan ishlarni kuchaytirish yo'nalishida qator choralarni amalga oshirish lozim. Jumladan, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish mexanizmlarini amalda qo'llash, barcha xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilimini oshirishga oid majburiy tartib o'rnatish, byudjet jarayonlari.

faoliyatini raqamlashtirish yuzasidan kompleks oshirish, mustaqilligi, faoliyatini baholash chora-tadbirlarni amalga oshirish. mezonlari va o'qitishga oid talablarni belgilash

2. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va kuchaytirish. tuzilmalari faoliyatining samaradorligini

Manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida milliy ma'ruza.(2024-yil). O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. – 2024. –B.9.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T., 2018. – B.7–8.
4. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan "Byudjet tizimi to'g'risida"gi 158-II-Qonuni. <https://lex.uz/docs/27999?ONDATE=01.01.2001%2000>.
5. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2025-y., 03/25/1107/1216-son)
6. Statistik to'plam. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010-yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015-yillarga mo'ljallangan prognozlari. –Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 18-b.
7. 2026-yil uchun Davlat byudjetining taqsimlanishida qanday o'zgarishlar bor? –// <https://lex.uz/doc-passport/7949060>.
8. Korrupsiya darajasi bo'yicha xalqaro reytingda O'zbekiston 3 pog'ona pastladi. – <https://kun.uz/kr/83747979>.
9. Маханова И. В. и др. Противодействие коррупции в бюджетном процессе// Экономическая безопасность и качество. 2018 № (31).
10. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lish kerak. –T.:O'zbekiston, 2017. – 31 b.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi «2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida"gi PF-5308-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2018-yil 29-yanvar, 4-son, 68-modda.